



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-15, (March) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

IKRAMOV Ibrohim Abdujabborovich

Namangan davlat universiteti

IJTIMOIY XOTIRA VA QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINING NAZARIY JIHATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiy xotiraning mazmun mohiyati, genezisi, uning vujudga kelish shart-sharoiti va rivojlanish bosqichlari, jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni, milliy an‘ana va marosimlar namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida bayon etilgan. Shuningdek, milliy davlatchilikning shakllanishiga olib keluvchi omillari, jamiyat ijtimoiy birligini ta‘minlashdagi funksiyasi, strukturaviy tuzulishi, qadriyatlar asosida avlodlar davomiyligini ta‘minlash hamda avlodlararo uzviyligini dialektik aloqadorligida xotira institutining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, xotira, ijtimoiy xotira, Aristotel, jamiyat ong, globallashuv, qadriyat, vatan.

Bugungi global ijtimoiy makon xotira mazmunini yanada yuksatril borishni taqazo etmoqda. Turli adabiyotlarda xotira “in‘ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o‘tmish tajribalar-ni esda qoldirish va zarur bo‘lganda tiklashdan iborat psixik jarayon” [1, B.241] hisoblanib, uning umumiy va mahsus xususiyatlari ana shu to‘plangan tajribani davomiyligini ta‘minlaydi.

Ijtimoiy xotira hozirgi global jamiyatlararo rivojlanish davrida tadqiq etish, uning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, sotsial-ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma‘rifiy hamda siyosiy funksiyalarini asoslash davrning dolzarb muammosi ekanligi sir emas. Boisi, dunyoning bir qator mamlakatlari tomonidan dunyo muvozanatini ta‘minlashga bo‘lgan intilishda kishilar ongini o‘zgartirish harakati yoki gegemonlik uchun kurash harakatlarida tarixiy xotirani assimlyatsiya qilishga bo‘lgan intilishlar, fitna nazariyalari orqali xalqlar, millatlar o‘rtasiga sohta tarixiy davolar solish va shu orqali jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartiblarni izdan chiqarishga harakat qilmoqdalar.

Shuning uchun ham milliy tarixiy xotirani rivojlantirish uni saqlab qolish bugungi kunda har qachongidan dolzarb ahamiyat qasb etaboshlashi avvalo milliy o‘zlikni saqlab qolishga qaratilgan hatti-harakatlardir. "Xotirani o‘rganish fanlararo sohasida xotira va o‘ziga xoslik muammolari tarixiy bilimlarning asosiy masalalari majmuasi bilan bog‘liq tadqiqotlar, tarixiy bilimlarni taqdim etish funksiyalari va metodlarini o‘rganish ijtimoiy gumanitar fan vakillarining e‘tiborini XX asrning ikkinchi yarmidan torta boshladi” [2, B.9-15].

O‘tkan XX asr insoniyat uchun har tamonlama rivojlanishning ijobiy va salbiy jihatlarini namoyon etibgina qolmay, ikkita jaxon urushlarini boshidan o‘tkazdi. Jahonda istiqomat qiluvchi millat va xalqlar ruxiy olamiga, ijtimoiy xotirasi va an‘anaviy qadriyatlarining o‘zgarishlariga olib kelgan keng mafkuralashtirish tendensiyalari kuchayib, kosmopolitizm rivojlanishi bilan birga mustamlakachilik tizimlari yemirildi. Bu jarayonlar kishilarda milliy o‘zlikni anglash, ozodlik, erkinlik tuyg‘ulari uchun kurash avj oldi. Turli jamiyatlarda milliy xotira uyg‘ondi. Mustamlakalarda milliy mustaqillik harakatlari tez sur‘atlarda yuksalib bordi.

Jamiyatning ilk shakllarini paydo bo‘la boshlashi shaxs tafakkurini rivojlanishi, ongdagi ijtimoiy transformatsiyani tezlashtirib insonda bilim va ko‘nikmalarni mukammallashtirdi. Shuningdek, shaxsiy tajriba, malaka va faoliyat birligini yuksalishi kishilarda turli an‘analarni vujudga keltirgan bo‘lsa, kundalik tajriba va bilimlar undagi ijtimoiy tajribani boyitib bordi.

Natijada madaniy va ma'naviy qadriyatlar, muayyan tartib va qoidalar majmuasi yaratildi. Insoniyat ibtidoiy to'ldan ibtidoiy jamiyatga o'tishi bilan ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Dastavval yuz bergan dunyo haqidagi ilk bilimlarning boyishi, diniy e'tiqod va tasavvurlarni paydo bo'lishi, urug'chilik jamiyatining shakllanishi, ho'jalikdagi o'zgarishlar kishilar xotirasining turli shakllarini vujudga keltira boshladi. Falsafada xotira "atrof muxitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchiesda olib qolish, esga tushirish, unitish hamda tanish, eslashdan iborat ruxiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy xodisa" [3, B.443] sifatida tavsiflanadi.

Shu bilan birga shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda eslash yoki eslab qolish faoliyati ham xotiradir. Umuman olganda xotira atrof-muhit bilan bog'liq barcha voqelikni bevosita yoki bilvosita shaklda esda saqlash, reproduktiv va produktiv tarzda yodlab qolish, verbal va noverbal tarzda yod etib turish, unutish hamda tanishdan iborat ruhiy hodisadir. Mnema xotiraning o'ziga xos moddiy asoslarini belgilash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi

Xotira inson bilan bir vaqtda shakllanib u bilan birga yashaydi. Ammo u inson umri singari qisqa emas balki, to'plangan va o'zlashtirilgan bilim avloddan-avlodga o'tib jamiyatda vorisilylikni ta'minlaydi. Shu orqali jamiyatda tarixiy, ijtimoiy, jamoaviy va boshqa xotira shakllarining davomiyligi ta'minlanadi. Kishilk jamiyatida xotira mavzusini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish "Sharq mutafakkirlari va Yunon faylasuflari ta'limotlarida uchraydi" [4, B.611].

Ilk sharq va g'arb mutafakkirlari o'zlarining xotira to'g'risidagi qarashlarida uni insonga xos xodisa, ongning mahsuli, insoniyat jamiyatining davomiyligini belgilovchi saqlovhona, o'zlikni saqlab qolish vositasi sifatida ta'riflashgan. Xususan, sharq allomalarning yirik vakillaridan bo'lmish Abu Nasr Forobiy xotirani "bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat" [4, B.612] ekanini alohida ta'kidlaydi.

Bundan uni anglash mumkinki, xotira xodisasi faqat insongagina xos jarayon emas, u jonzotlarga ham xos xususiyatdir. Bugungi psixologiya fanida xotira atrof muhitdagi voqelikni "passiv va aktiv holda, mantiqiy va mexanik yul bilanaks ettirgan holda esda olib qolish, esga tushirish, unutish xamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi." [4, B.612] Shuning uchun inson tomonidan muayyan bir materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish unig individual tajriba ko'lami, bilim saviyasi va aql-zakovati darajasiga bog'liqdir.

Inson xotirasi ikkiga: qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga bo'lish mumkin. Uni turli usul va vositalar (aql va tuyg'ularni yuksalishi, olingan bilim va ko'nikmalarni takrorlash, jamiyatdagi kontent ta'sir, tashqi taassurotlarni qalbga joylash, yod olish, milliy o'ziga xos tarixni izlashga bo'lgan intilish, jamiyatning ijtimoiy e'tibori, ixtiyoriy va majburiy unutish) bilan rivojlantirib boriladi. Ushbu ikki ko'rinish deklarativ (aniq) - ongli ravishda maqsadli eslab qolish; Protsessual (jarayondagi) - qoidalarga asoslangan kundalik hayotda foydalaniladigan ko'nikmalar; semantik - hayot davomida to'plangan bilimlar, tajribalar majmu; avtobiografik - induvidual shaxsga tegishli tajribalar, muayyan narsalar kiradi. Shuningdek, uning quyidagi: harakatlarni yodlash va takrorlash; ob'ekt va hodisalarning xususiyatlarini ongda saqlab qolish; og'zaki-mantiqiy o'rganish; hissiy in'ikoslarni keltirib chiqaruvchi ob'ektlarni eslash va takrorlash; insoniy tasvirlarni hech qanday maqsadsiz eslab qolishi; ma'lum bir maqsad va vazifa bilan o'ylangan materialni ma'lum usullardan foydalangan holda takrorlash kabi tasniflari mavjud. Qolaversa, inson xotirasini individual mustahkamlab borishning quyidagi: bilish, o'zlashtirish, ajrata olish, sensualistik bilish, ratsional, saqlanyapgan axborotni eslab qolish; jismoniy mashqlar orqali chiniqtirish; olingan bilimni takrorlab turish singari usullari bor.

Kishilik jamiyatining ma'naviy dunyosini tashkil etuvchilaridan bo'lmish qadriyat va xotira masalasi hamda ijtimoiy qandriyatlarni, bilim va tajribalarni unitishga doir ilk qarashlar qadimgi sharqda diniy tasavvur va an'analar bilan hamohang tarzda o'rganilib unga amal qilingan.

G'arbda uni inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, jamiyatga ijtimoiy-siyosiy ta'siriga ko'proq urg'u berilgan. Masalan, Aflotun [5, B.251] xotira va uni shakllantiruvchi vositalarni bilimga bog'liq deb hisoblaydi. Aflotun inson qalbida mavjud bo'lgan va berilgan har qanday savollarga qaytirilgan javoblar uni xotirada saqlab qolishga undaydi va buni samarali usuli dialogdir deydi.

Aristotel esa insonni o'tmishni yod etishi, xotirotda tutishi yoki unitishi bilan bog'liq xodisalarini turlicha bo'lishi mumkinligini qayd etib "odamlarning eslash va xotiraga ega bo'lish qobiliyatlari turlicha ekanligini payqash mumkin. Darhaqiqat, eslash va eslaydiganlar bir xil mohiyat emas, lekin odatda yaxshi xotiraga ega, chaqqon va zukko odamlargina osonroq eslashadi"[6, B.161] deganda faylasuf inson qobiliyatiga asosiy urg'uni beradi. Ammo u boshqa bir fikrida xotirani tasvirlarsiz mavjud bo'la olmaydi deydi. "E'tirof" asarini muallifi bo'lmish Avreliy Avgustin xotira inson hayot yo'lini uzluksizligini ta'minlaydi va u doimiy mavjudlikning zaruriy sharti deb hisoblaydi. U "uchta vaqt bor - o'tmishning hozirgi davri, hozirgi zamon va kelajak. Bu uch vaqt bizning qalbimizda mavjud bo'lib men ularni quyidagicha ta'riflayman: o'tmishning hozirgi vaqti bu xotira, hozirgi zamon esa uning bevosita tafakkuridir, kelajakning vaqti uni kutulishidir" [7, B.293-294] degan hulosani beradi.

Manbalarda inson xotirasini murakkab tuzilishga ega deb hisoblanib ma'naviy-madaniy nuqtai nazardan hamda gumanitar fanlar tizimida ijtimoiy va tarixiy xotira shaklida tadqiq etish keng tarqalgan. Ushbu nuqtai-nazardan xotira ma'lumotlarni eslab qolish, saqlash, ko'paytirish va zaruriy vaziyatda kishilar voqeligiga havola qilish orqali namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayondir. "Xotira-in'ikos etilgan narsa va xodisalarni yoki o'tmish tajribalarini esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon; tasavvur va tushunchalarning hissiyotdan so'ng saqlanib qolishidir" [8, B.294]. Ushbu ta'rifda xotirani xissiyotdan keyinga qo'yilishi bizningcha noto'g'ri, sababi xotira tasavvur va tushuncha jarayonlarni ongli ravishda saqlaydi va kelajakka etib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.-Б.241.
2. Репина Л. П. Историческая память и национальная идентичность подходм и методм исследования // Диалог со временем. 2016. Выш. 54. С. 9-15.
3. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент: Шарқ, 2004 -Б.443.
4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. -Б. 611.
5. Платон. Театет // Собрание сочинений: в 4 тт. / Обш. ред. А. Ф. Лосева, В. Ф. Асмуса, А. А. Тахо-Годи; Перев. с древнегреч. Москва: Ммсль, 1993. Т. 2. С. 251.
6. Аристотель. О памяти и припоминании // Вопросы философии. 2004. № 7. С. 161.
7. Аврелий Августин. Исповедь. Москва: Ренессанс, 1991. С.293-294.
8. Содиржонов М. Sociological analysis of human capital development processes //in Library. - 2023. - Т. 1. - №. 1. - С. 246-254.
9. Содиржонов М. Этносоциологик тадқиқотларда этник омиллар ва қарама-қаршиликлар //in Library. - 2021. - Т. 21. - №. 2. - С. 874-879.
10. Фалсафа энциклопедик луғат. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2010. -Б. 294.